XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 25 - iyul VI-78-71-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

“Toshkent suv ta’minoti” MChJ, “Chimgan-chorvog‘” MChJ, “Musaffo obi-hayot” MChJlar tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi 6074-sonli Farmoni 3-bandi va 2022-yil 2-avgustdagi 341-sonli qarori 4-ilovasi 5.11-bandiga muvofiq, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Toshkent suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 1-iyunda berilgan T-11-01/03-2329-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 02-20/27-08-38/1123-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Chimgan-Chorbog‘ suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 5-iyunda berilgan T-11-01/03-2370-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 02-20/27-08-38/1125-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Musaffo obi-hayot” MChJga 2023-yil 9-iyunda berilgan T-11-01/03-2474-son xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 02-20/27-08-38/1124-sonli xati o‘rganib chiqilib, viloyatda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi 6074-sonli Farmoni va 2022-yil 2-avgustdagi 341-sonli qaroriga ijro uchun qabul qilinsin.

2. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Toshkent suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 1-iyunda berilgan T-11-01/03-2329-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 02-20/27-08-38/1123-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Chimgan-Chorbog‘ suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 5-iyunda berilgan T-11-01/03-2370-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 02-20/27-08-38/1125-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Musaffo obi-hayot” MChJga 2023-yil 9-iyunda berilgan T-11-01/03-2474-son xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 02-20/27-08-38/1124-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2.1. “Toshkent suv ta’minoti” MChJ, “Chimgan-chorvog‘” MChJ, “Musaffo obi xayot” MChJlar tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari tariflari taqdim etilgan xulosalar asosida **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Zarifa Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G‘ayrat Sheraliyev) iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan tariflari 2023-yil 20-avgustdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. “Toshkent suv ta’minoti” MChJ, “Chimgan-chorvog‘” MChJ, “Musaffo obi hayot” MChJ, shahar va tuman hokimliklari tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan tariflari 2023-yil 20-avgustdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

5. “Toshkent suv ta’minoti” MChJ, “Chimgan-chorvog‘” MChJ, “Musaffo

obi-hayot” MChJ belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov hamda viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barhayot Meliyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining
2023-yil 25-iyuldagi
VI-78-71-10-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)

T/r	Xizmat turi	**Amaldagi narx** (tarif) (so‘m)	**Amaldagi narx** (tarif) (so‘m) (QQS bilan)	**Taklif etilayotgan narx** (tarif) (so‘m)	**Taklif etilayotgan narx** (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
“Toshkent suv ta’minoti” MChJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m3	950		1700	
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	4000	4600	7000	7840
3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	4000	4600	7000	7840
Oqova suv xizmati narxi					
4	Aholi uchun 1 m3	700		850	
5	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	1300	1495	1850	2072
6	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	1300	1495	1850	2072
“Chimgan-Chorbog‘ suv ta’minoti” MChJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m3	500		1050	
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	650	747,5	1100	1232

3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	3000	3450	4000	4480
Oqova suv xizmati narxi					
4	Aholi uchun 1 m3	200		300	
5	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	300	345	350	392
6	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	2000	2300	2800	3136
“Musaffo obi-hayot” MChJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m3	565		600	
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	700	805	1000	1120
3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	2120	2438	3500	3920
4	Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	565	649,75	600	672
Oqova suv xizmati narxi					
5	Aholi uchun 1 m3	370		400	
6	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	420	483	500	560
7	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	950	1092,5	1100	1232
8	Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	370	425,5	400	448